

Date: 27<sup>th</sup> December-2024

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'QUV-BILUV FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI**

**Maqsudova Hafiza Ismatilloevna**

OXU 2 bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: professor DSc **Nasiba Sabirova Ergashevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga qiziqtirishda didaktik o'yinlardan foydalanish muhim vazifaga ega. Maqolada mazkur vazifalarni amalga oshirishning bir qator metodlari, jumladan didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** O'qish, didaktik o'yin, ta'limiy o'yin, metod, usul va vositalar

Ma'lumki, ta'lim — o'quvchilarga ko'nikma va malakalar berishining, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir.

Ta'lim jarayoni — bolalar xotirasining boyishi, ular nutq va tafakkurining o'sish jarayonidir; turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan jarayondir.

O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

O'quv faoliyati ham, biluv faoliyati ham bitta ijtimoiy institutga — ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga daxldor. Bu faoliyat turlarining har ikkalasi ham tarkiban maqsad, motiv, vosita, natijaga ega. Ammo shularga qaramasdan ularning o'zaro farqlari ham mavjud.

Agar o'quv faoliyati bilim, ko'nikma, malakaga yo'nalgan bo'lsa, biluv faoliyati bilim, ko'nikma, malaka bilan birga ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni ham shakllantirishga yo'nalgan. Binobarin, dastlabki farqni o'rganiladigan hodisalar mazmunida, biluv faoliyatining mazmun jihatidan boy va kengligida ko'ramiz.

2-farq. O'quv faoliyatida o'zlashtirish reproduktiv xarakterda bo'ladi. Bola o'qituvchi aytgan topshiriqlarni ijro etadi, o'qituvchi va o'rtoqlarining faoliyatiga ergashadi, o'zgalar faoliyatini takrorlaydi. Biluv faoliyatida o'zlashtirish produktiv xarakterda amalga oshadi. O'quvchilar o'qituvchi bilan hamkorlikda o'z oldiga topshiriqlar qo'yadi, qo'yilgan muammolarni mustaqil bajaradi. Demak, bu ikki faoliyat turining yana bir farqi bolalar faoliyatining amal qilish xarakteri bilan izohlanadi.

3-farq. O'quv faoliyatida bola ta'limning obyekti, biluv faoliyatida esa ta'limning subyekti rollarida ishtirok etadi. Ikkinchi holatda ta'limda ishtirok etish o'quvchi shaxsini ta'lim jarayoni markaziga aylantiradi. Ta'limning obyekti yoki subyekti funkoiyalarida ishtirok etish bu ikki xil faoliyatning navbatdagi farqidir.



Date: 27<sup>th</sup> December-2024

4-farq. O'quv faoliyati va biluv faoliyati o'rtasidagi yana bir farqni ularda bolalar mustaqilligining har xil darajada ekanligida ko'ramiz. Biluv faoliyatida bolalar mustaqilligi eng yuqori darajada bo'ladi. Hozircha yuqoridagi farqlarni nazarda tutib o'quv faoliyati va biluv faoliyatiga alohida-alohida tavsif berishga o'tamiz.

Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik yoshdagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. o'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. o'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. o'yin topshirig'i—o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshiriqidir.

«Jimjitlik» o'yinida bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi ko'rsatgan belgi, sonni «xayol»da yechish va son natijasini topishdir. o'yin qoidasi — ovoz chiqarmasdan harakat qilishdir.

Didaktik material: suratlar, jadvallar, plakatlar, sanoq jadvallari, stol ustida ko'rsatiladigan teatr-shirma, abak (sanoq asbobi), o'yinchoqlar, cho'tlar; har bir bolaga beriladigan sanoq material: geometrik shakllar, xaltachalarga solingan dub yong'oqlar, cho'plar, qo'lda yasalgan buyumlar (qog'oz qayiqcha va shapkacha); geometrik shakllar chizilgan jadvallar, kartondan yasalgan shakllar, sxemalar solingan konvertlar; sanoq materiallari solingan individual yashiklar; geometrik shakllar solingan konvertlar va hokazo.

Shunday qilib, o'yinlar, ayniqsa dastlabki kunlarda bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Boshlang'ich sinfda barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g'oyasiga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o'quvchining bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal



Date: 27<sup>th</sup> December-2024

etishga qodir emas, chunki hech qanday o'rgatuvchi mashina o'qituvchining intuistiyasini, ya'ni hissiyotini almashtira olmaydi.

An'anaviy didaktika butun e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan edi va ta'lim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi. O'qitish jarayoni etarli o'rganilmas edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyati bayon qilinadi edi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi.<sup>1</sup>

Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'qitish materialini o'zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o'qituvchi uchun eng yaxshi usul bo'lmashligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
2. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin, 10*.
3. [Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature](#)  
MY Ruziyeva, S Lobar
4. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1)*, 54-68.
5. Yoqubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR, 7(17)*, 461-466.
6. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
7. Bahriyeva, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
8. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science, (5)*, 277-284.
9. Ruziyeva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res, 65(1)*, 2719-2722.
10. Ruziyeva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск), (23)*, 127-130.

<sup>1</sup> Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.



Date: 27<sup>th</sup>December-2024

11. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.
12. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
13. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
14. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

